

## MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATIDA ANTROPONIMIKA

**Xudayarova Muxabbat Tajimuratovna,**  
*f.f.n., dots. Nukus DPI*

**Xanmuratova Sayyora Xalmuxammet qizi,**  
*o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi*  
*4-bosqich talabasi*

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada Muhammad Yusuf she’riyatidagi antroponimlar o‘rganildi. Antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari ochib berildi va tahlil qilindi.

*Kalit so‘zlar:* onomastika, onomastik birliklar, antroponim, antroponimiya, antroponimika, Muhammad Yusuf.

Tilshunoslikning onomastika (lotincha “onuma” – nom so‘zidan olingan) bo‘limida nomlar, nomlarning turlari, nomlanish sabablariga e’tibor qaratiladi Badiiy asar tilini o‘rganishda onomastikaning o‘rni alohidadir, ayniqsa, shoir yoki yozuvchilarning asarlarida qo‘llanilgan onomastik birliklarni tadqiq etish tilshunoslik uchun muhim masalalarni yoritishga yordam beradi. Shu jihatdan olganda, she’riyatda onomastik birliklar, ya’ni nomlar she’rlarning badiiy quvvatini oshiruvchi asosiy vositalardan hisoblanadi.

Muhammad Yusuf she’rlarida antroponimlar (*Alpomish, Shiroq, Muqanna, Temur Malik, Yassaviy, Ulug‘bek, Navoiy, Bobur, Mashrab, Jaloliddin, Chingiz, Usmon, Qodiriy, Muhammad Yusuf*), toponimlar (*Xo‘jand, Hindiston, Qo‘qon, Sirdaryo*), kosmonimlar (*yulduz, osmon, ko‘k, samo*), zoonimlar (*G‘irot, jayron, kiyik, qarg‘a, to‘ti*) va boshqa onomastik birliklarni uchratish mumkin.

Antroponim – shaxs (inson)ning atoqli otidir. Antroponimiya biror tildagi shaxs atoqli otlarining majmuidir. Antroponimlar makroko‘lamiga kiradigan nomlar quyidagi atoqli otlardan tashkil topadi: 1) ismlar; 2) laqablar; 3) familiyalar; 4) otasmlar; 5) taxalluslar; 6) shaxsni nomlashning boshqa xil tarixiy shakllari [1].

Antroponimlardan o‘rinli foydalanish she’riyat tilini jonli xalq tili bilan yaqinlashtiruvchi, milliylikni ko‘rsatuvchi ko‘zgu sifatida ko‘rishimiz mumkin.

**Ism** – yakka shaxsni o‘zgalardan oilada (avlodda va umuman jamiyatda) farqlash uchun unga go‘daklik davrida beriladigan atoqli ot.

Muhammad Yusuf she’riyatida *Sulaymon, Abdullo, Muhammad, Kumushbibi, Omina, Xolida, Ma’suda, Mahzuna, Mavluda, Ma’suma, Fayzullo, Usmon, Rustam, Farhod, Mo‘min, Nozima, Madina, Shirin, Zaynab, Lutfixon, Zulayho, Dilbar, Dildor, Dilrabo, Malika, Oybek, Otabek* kabi ismlardan unumli foydalangan.

Asli turkman qiz bir bahona, xolos,

Izlaganim edi sizlar kabilar,

Qo‘msaganim hayo – momomlarga xos,

Sog‘inganim edi *Kumushbibilar*...

Muhammad Yusufning "Menga bering" [2] she'rida tarixiy shaxslar tilga olingan:

*Behzod* chizgan suvratini

Menga bering, menga bering.

**Behzod (fors-tojikcha)** – Kamoliddin Behzod fors miniatyurasining taniqli musavviri, temuriy hukmdor Husayn Boyqaro va keyinchalik safaviy shohi Taxmasp saroylarining rassomchisi bo‘lgan.

Qarang, **Abu Rayhon** kelur,

Xasta ko‘ngli vayron kelur,

**Sinoning** tibbiyotini

Menga bering, menga bering

**Abu Rayhon Beruniy** – islom oltin davrining zabardast Xorazmlik qomusiy allomalaridan biri. G‘arb tillarida uning ismi Aliboron deb ham atalgan. Al-Beruniy nomi forscha „birun“ („chet“ degan ma’noni anglatadi) so‘zidan olingan bo‘lib, u Afrig‘iy Xorazmshohlar poytaxti Kat shahrining chekka tumanida tug‘ilgan.

**Abu Ali ibn Sino** (to‘liq ismi: Abū ‘Alī al-Husayn ibn ‘Abd Allāh ibn Sīnā al-Balkhī) – o‘rta osiyolik buyuk qomusiy olim, tabib va faylasuf deb yuritilgan. G‘arbda Avitsenna (ingl. Avicenna) nomi bilan mashhur.

**Temurnimas, Chingiznimas,**

Osmon to‘la yulduznimas,

**Ulug‘bekning** niyatini

Menga bering, menga bering.

**Temur** – to‘liq ismi **Sohibqiron Amir Temur Tarag‘ay Bahodir Ko‘ragoniy**. Bunda faqat Temur shaxsning xos ismi, Amir – hukmdorlik darajasini anglatadi, Sohibqiron – Temurga zamondoshlari tomonidan berilgan sifat (asr, davr sohibi degan ma’noni bildiradi), Tarag‘ay – otasining ismi (familiya hisoblanadi), Bahodir – otasining laqabi, Ko‘ragon – xonga kuyovlik nisbasi. Antroponimlar manbaiga atoqli ot turlari, taxallus, laqab, nisba va shaxsni atashlikning turli usullari kiradi.

**Chingizxonning** haqiqiy ismi – Temuchin. Otasi Yasug‘oy bahodir o‘g‘lini o‘z asirligidagi tatar qabilalari boshlig‘i Temuchin sharafiga ataydi. "Chingizxon" esa uning unvoni. "Xon" – hokim, "Chingiz" – o‘sha davrda "ummon" ma’nosini anglatgan, hozirda esa bu so‘z "hokim" deb tarjima qilinadi.

**Ulug‘bek (o‘zbekcha)** – (Mirzo Muhammad ibn Shohrux ibn Temur Ulug‘bek Ko‘ragon – Temuriylar davlatining hukmdori, buyuk o‘zbek astronomi

(yulduzshunos) va matematigi) – Temuriylar davlatining hukmdori, buyuk o‘zbek astronomi (yulduzshunos) va matematigi bo‘lgan.

**Laylilarni** vafosini

**Majnunlarin** nidosini,

**Alpomishin** kelbatini

Menga bering, menga bering

**Layli (arabcha)** – savsangul, oqshom gulidek barno qiz yoki tun go‘zali, tungi yog‘du degan ma‘noni bildiradi.

Layli va Majnun fors-turkiy romantik dostonidir. Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan folklor hamda yozma shakldagi adabiy yodgorlik.

**Alpomish** – o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodidagi qahramon personaj. Xalq dostonlarida qahramonlik, Vatanga muhabbat, xalqqa sadoqat, do‘st-birodarlik, oriyat, mardlik, bahodirlik kabi ijobiy fazilatlarini namoyon qiluvchi obraz.

Osmonlarga uchgim kelur,

Shoh Mashrabni quchgim kelur.

**Go‘ro‘g‘lining** G‘irotini

Menga bering, menga bering.

**Go‘ro‘g‘li** – (go‘rda tug‘ilgan bola) o‘zbek xalq dostonlari qahramoni. Qadimiy turkiy tilda go‘r-ko‘r-botir, dovyurak, pahlavon ma‘nolarini bildiradi.

Bu talmehning go‘zal namunalarida Muhammad Yusuf antroponimlar vositasida o‘zbek xalqining buyuk shoir-u allomalarining ilm-fan rivojidagi xizmatlari, kashfiyotlarini, sarkarda-yu mard o‘g‘lonlar va milliy qahramonlarining jasoratini, yurt tinchligini himoya qilishdagi mashaqqatlarini o‘quvchiga ko‘rsatgan. Antroponimlarni she‘riyatda qo‘llash orqali ohangdorlikni, fikrni, she‘riy g‘oyani obrazli, ta‘sirchan ifodalashga erishadi.

**Laqab** – (arabcha). 1. Biror xususiyatga ko‘ra, kishiga hazil qilib yoki masxaralab berilgan qo‘shimcha nom; shuningdek, ma‘lum maqsadda o‘zgartirib olingan nom. 2. Esk. ayn. taxallus. 3. Esk. ayn. familiya. 4. Hayvonlarga qo‘yilgan nom [3].

*Men ham shaydo, men ham maftun,*

*Men ham hech kimi yo ‘q **Majnun**,*

*Meni laylo tushungaydir,*

*Sen, ey jonon, tushunmaysan.*

**Majnun (arabcha)** – telba, devona, aqldan ozgan yoki muhabbat gadosi degan ma‘noni bildiradi. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidagi Qaysning laqabi.

**Taxallus** – (arabcha – o‘zini o‘zi qutqarish, ozod qilish, xolos bo‘lish) biror ijodkor (shoir, yozuvchi, rassom, olim va sh.k.) yoki siyosiy arbobning o‘zi uchun tanlab olgan boshqa, ikkinchi nomi [4].

Shoirning "Usmon Nosir" [2] she'rida qo‘llanilgan taxalluslar yaqqol misol bo‘la oladi.

*Sabolar qaytgusi baxmal bog‘larga,*

*Navolar qaytgusi mahtal bog‘larga.*

**Qodiriyning qabri qizg‘aldoqlarga**

*To‘lg‘ay kunlar hali kelmog‘i bordir.*

**Qodiriy** – o‘zbek adabiyotining yorqin namoyondasi, o‘zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriyning (1894.4.10-Toshkent) -1938.10.04) adabiy taxallusi. Qodiriy taxallusi shoirning ismi bilan birgalikda qo‘llaniladi.

*Yulduzlar — Sulton **Ulug‘bek** imoni,*

*Topolmasdan sarson **Bobur** mirzoni.*

*Cho‘g‘damas bosh uzra **Muqanna** joni*

*Bo‘lg‘ay kunlar hali kelmog‘i bordir.*

**Ulug‘bek (o‘zbekcha)** – buyuk astronom va matematik, o‘z davrining atoqli allomasi, davlat arbobi, Movaraunnahrni 1441-1449-yillar boshqargan, mashhur hukmdor Muhammad Tarag‘ayning taxallusi. Sohibqiron Amir Temurning nabirasi Muhammad Tarag‘ayning sifat va xususiyatlariga ishora tarzida Ulug‘bek taxallusi berilgan.

Shoirning "Menga bering" [2] she'rida:

*Hinduga musofir o‘sha,*

*Hirotdagi **Bobur** o‘sha,*

*G‘urbatdagi **Furqatini***

*Menga bering, menga bering.*

**Bobur** – (taxallusi) to‘liq ismi – Zahiriddin Muhammad ibn Umar shayx Mirzo o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste‘dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shoh bo‘lgan. Dovyurakligi va jasurligi uchun yoshligidanoq “Bobur” (sher) taxallusini oladi. **Bobur** ismi ba‘zi manbalarda: a) yo‘lbars, arslon; b) ulug‘, ulkan, buyuk degan ma‘nolarni anglatadi.

**Muqanna** – asl ismi Hoshim ibn Hakim. Movarounnahrda VIII asrning 70-80-yillarida Arab xalifaligi hukmdorligiga qarshi ko‘tarilgan ozodlik harakatining boshlig‘i. Manbalarda keltirilishicha, Hoshim ibn Hakim bir ko‘zi ko‘r, boshi kal va basharasi xunuk bo‘lganligidan boshi va yuziga ko‘k parda tutib yurgan. Shuning uchun ham "Muqanna", ya‘ni "Niqobdor" laqabi bilan mashhur bo‘lgan.

Shoir “Vatanim” she’rining mazmun-mohiyatini oshirishda bir qancha ijodkorlarning taxalluslari keltirib o‘tilgan [2]:

Sen **Mashrabsan**,

Xalqda tumor,

Balxda dorga osilgan,

**Navoiysan**, shoh yonida

Faqirni duo qilgan.

**Yassaviysan**, meniki deb,

Ko‘ringan da’vo qilgan,

Ming bir yog‘i ochilmagan

Qo‘rig‘imsan, Vatanim.

**Mashrab (arabcha)** – Boborahim Mulla Vali o‘g‘li (1640-Namangan- 1711-Balx) yoki taxallusi bo‘yicha Mashrab – o‘zbek shoiri va mutafakkiri, tasavvuf adabiyotining yetuk namoyondasi. Mashrab – xosiyat, xulq, xislat, odat degan ma’nolarni bildiradi. Shoir tabiatidan kelib chiqqan holda Mashrab taxallusini olgan.

**Navoiy** – o‘zbek va boshqa turkiy xalqlarning buyuk shoiri, mutafakkir va davlat arbobi. To‘liq ismi Nizomiddin Mir Alisher bo‘lib, “Navoiy” taxallusi bilan ijod qilgan. Navoiy so‘zi kuy, ohang, bahra degan ma’nolarni anglatadi. Sharq va G‘arbdagi ko‘pchilik ijodkorlar singari Nizomiddin Mir Alisher ham taxallusi bilan mashhur bo‘lgan.

**Yassaviy** – asl ismi Ahmad (Yassi yaqinidagi Sayram shahri, taxm. XI asrning 2-yarmi – 1166) – turkiy xalqlarning buyuk shoiri, tasavvufning mashhur namoyondalaridan biri. Yassi shahridan bo‘lganligi bois, Yasavviy taxallusini olgan.

Muhammad Yusuf lirik murojaat shaklida bitilgan “Laganbardorlar” she’rida o‘zbek adabiyoti namoyondalarining taxalluslari keltirilgan:

Bilmoqchi bo‘lsangiz, qabri qayda deb,

Laganbardorlardan so‘rang **Cho‘lponni**...

**Cho‘lpon** – o‘zbek adabiyotining atoqli namoyondasi, shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Yunusovning (1897-yil, Andijon – 1938.4.10, Toshkent) adabiy taxallusi. Dastlab “Qalandar”, “Mirza qalandar”, “Andijonlik” keyinchalik “Cho‘lpon”(Tong yulduzi) taxallusi bilan ijod qilgan.

Shoir “Mingtepa” she’rida yurt tinchligi yo‘lida xizmat qilgan kishilarga to‘xtalib o‘tgan:

Sabr aylab sarg‘aygan oh sarson el,

Oltin beshik ortmog‘lagan, horgan el.

Qon bo‘lganda **Dukchi eshon** ortidan,

To‘p og‘ziga tayoq tutib borgan el.

**Dukchi eshon-** siyosatchi va din peshvosi Muhammadali xalfa Sobir o‘g‘li (1856-yil Farg‘ona viloyati Chimyon qishlog‘i – 1898-yil, 12-iyun Andijon) taxallusidir. Eshonning otasi paxtani chigitidan ajratadigan xalaji va beshik yasovchi hunarmand bo‘lgan. Uning taxallusi ota kasbi nomidan olingan va xalq orasida ushbu taxallus bilan mashhur bo‘lgan.

Hinduga musofir o‘sha,  
Hirotdagi Bobur o‘sha,  
G‘urbatdagi **Furqatini**  
Menga bering, menga bering.

**Furqat** – asl ism-sharifi Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li (1859, Qo‘qon – 1909, Yorkent) – milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri, o‘zbek shoiri va publisist. Furqat (ayriliq) taxallusi ostida ijod qilgan. Yashash tarzi yoki qismatiga ishora sifatida Furqat taxallusini tanlagan.

Bu talmehning go‘zal namunalarida Muhammad Yusuf antroponimlar ya’ni taxalluslar vositasida o‘zbek xalqining buyuk shoir-u allomalarining ilm-fan rivojidagi xizmatlari, kashfiyotlarini, sarkarda-yu mard o‘g‘lonlar va milliy qahramonlarining jasoratini, yurt tinchligini himoya qilishdagi mashaqqatlarini o‘quvchiga ko‘rsatgan. Antroponimlarni she’riyatda qo‘llash orqali ohangdorlikni, fikrni, she’riy g‘oyani obrazli, ta’sirchan ifodalashga erishadi.

Muhammad Yusuf she’riyatida antroponimlar o‘rni bilan qo‘llanib, asarning ta’sirchanligini, undagi xalqona milliy ruhni kuchaytirish, oddiylik va samimiylikni ta’minlash uchun xizmat qilgan. Shoir poetik uslubining ana shu xususiyatini lingvopoetik jihatdan yanada kengroq va chuqurroq tadqiq etish hozirgi o‘zbek she’riyatining joziba kuchini aniqlashga imkon beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. 11 bet.
2. Muhammad Yusuf . Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2007.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 492.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – B. 14.
5. Xudayarova, M., & qizi Usanova, Q. M. (2023). O ‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARI. CHIQUISH KELISHIGI QIYOSI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 62-66.
6. Usanova, Q., & Xudayarova, M. (2023). O ‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARINING QIYOSIY TADQIQI. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(6), 54-56.

7. Xudayarova, M., & Usanova, Q. (2023). “BOBURNOMA”–TARIXIY MANBA SIFATIDA. Академические исследования в современной науке, 2(4), 24-27.
8. Худаярова, М. Т., Буранова, Ш. М., Юсупова, Г. А., & Сапарова, А. З. (2021). Қорақалпоғистон Худудида Яшовчи Туркий Халқлар Тилидаги Таом Номларининг Лексик Қатламлари. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(5), 25-32.
9. Xudayarova, M. (2020). Qoraqalpog'iston o'zbek shevalaridagi taom nomlarining o'ziga xos xususiyatlari. TDPU ILMIY AXBOROTLARI.
10. Tajimuratovna, X. M. (2024). QORAQALPOG 'ISTON HUDUDIDAGI EKKLEZIONIMLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(3), 179-183.
11. Usanova, Q., & Xudayarova, M. (2024). O‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA FE’L SO ‘Z TURKUMI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(3), 25-27.